



**TOVAR BELGISI VA XIZMAT KO'RSATISH BELGISINI  
RO'YXATDAN O'TKAZISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA**

*Razzoqova Flora Shamsiddin qizi*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

*4-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Saidov Shoxruxxon Muzaffarovich*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgilarini ro'yxatdan o'tkazishning xalqaro tajribasi, xalqaro huquqiy normalar va yondashuvlar tahlil qilinadi. Dunyoning yetakchi mamlakatlari - AQSh, Yevropa Ittifoqi va Xitoy tajribalari asosida ro'yxatdan o'tkazishning o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida ushbu jarayonni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Аннотация.** В статье рассматривается международный опыт регистрации товарных знаков и знаков обслуживания. Особое внимание уделяется анализу систем США, Европейского Союза и Китая, а также международных соглашений- Мадридского протокола и Парижской конвенции. Приведены рекомендации для совершенствования системы регистрации в Узбекистане.

**Annotation.** This article analyzes international practices for the registration of trademarks and service marks. The study focuses on the legal frameworks of the USA, European Union, and China, as well as global treaties such as the Madrid Protocol and Paris Convention. It also provides practical suggestions for improving trademark registration in Uzbekistan.



**Kalit so‘zlar:** Tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi, xalqaro tajriba, Madrid protokoli, Parij Konvensiyasi, intellektual mulk.

**Ключевые слова:** Товарный знак, знак обслуживания, международный опыт, Мадридский протокол, Парижская Конвенция, интеллектуальная собственность.

**Keywords:** Trademark, service mark, international practice, Madrid Protocol, Paris Convention, intellectual property.

### **Kirish**

Tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, raqobatbardoshlik va intellektual mulkni himoya qilishning asosiy vositasidir. Juhon bozoridagi global integratsiya sharoitida korxonalar o‘z brendlari va mahsulotlarini himoya qilish maqsadida milliy va xalqaro darajada ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoniga ehtiyoj sezmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada xalqaro huquqiy amaliyotlar, ilg‘or tajribalar va O‘zbekiston sharoitida bu sohani takomillashtirish istiqbollari tahlil qilinadi.

Tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish - bu tijorat faoliyatining ajralmas elementi bo‘lib, mahsulot va xizmatlarning bozordagi identifikatsiyasini ta’minalash, raqobatchilardan ajratib ko‘rsatish hamda huquqiy himoya qilish imkonini beradi. Globalizatsiya sharoitida tovar belgilarining qiymati ko‘p jihatdan rend obro‘siga, bozordagi mavqeiga va huquqiy himoyasiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Bugungi kunda tovar belgilarini xalqaro darajada ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlari asosan bir necha asosiy xalqaro shartnomalar asosida amalga oshiriladi<sup>1</sup>:

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilar, xizmat ko‘rsatish belgilar va tovar kelib chiqish joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent : Adolat, 2020. – 36 b.



Parij konvensiyasi (1883) - bu hujjat sanoat mulkini xalqaro darajada himoya qilishning asosiy tamoyillarini belgilaydi va barcha a'zo davlatlarda patentlar, tovar belgilarini birinchi ariza topshirilgan sanadan boshlab bir xil muddatda tan olish tamoyilini joriy etadi<sup>2</sup>.

Madrid kelishuvi va Protokoli (1891, 1989) - bu tizim tovar belgilarini bir nechta davlatlarda yagona ariza asosida ro'yxatdan o'tkazish imkonini beradi. Bu mexanizm tadbirkorlar va korxonalar uchun vaqt va mablag' tejalishini ta'minlab, huquqiy muhofazani ancha soddalashtiradi.

Singapur shartnomasi (2006) - bu hujjat tovar belgilarining ro'yxatdan o'tkazilishi va huquqiy yuritilishi bo'yicha zamonaviy, soddalashtirilgan va raqamlashtirilgan jarayonlarni belgilaydi<sup>3</sup>.

Tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha AQSH tajribasi juda boy va mukammal hisoblanadi. AQSHda bu jarayon USPTO (United States Patent and Trademark Office) tomonidan boshqariladi. Bu idorada onlayn ariza topshirish, elektron hujjat almashinuvi va avtomatlashtirilgan tekshiruv tizimi joriy etilgan. USPTO amaliyotida tovar belgilarining foydalанишими isbotlash talabi mavjud, bu esa faqat ro'yxatdan o'tkazish emas, balki real tijorat faoliyatida belgi ishlatalishini ham rag'batlantiradi. Yevropa Ittifoqi doirasida esa EUIPO (European Union Intellectual Property Office) tomonidan yagona ariza asosida 27 ta a'zo davlat hududida amal qiluvchi tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati yaratilgan. Yevropa Ittifoqining ushbu tizimi, ayniqsa, tadbirkorlar uchun yirik regional bozorlarni qamrab olishda qulaylik yaratadi. EUIPO orqali ariza topshirish jarayoni to'liq raqamlashtirilgan, hujatlarni onlayn ko'rinishda ko'rib chiqish va monitoring qilish imkoniyati mavjud.

<sup>2</sup> Parij konvensiyasi sanoat mulkini himoya qilish to'g'risida. – Geneva : WIPO, 2020.

<sup>3</sup> Singapur shartnomasi. – Geneva : WIPO, 2006



Xitoy Xalq Respublikasida CNIPA (China National Intellectual Property Administration) tomonidan tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi nazorat qilinadi. Xitoy iqtisodiy jihatdan tez rivojlanayotgan mamlakat sifatida brend himoyasiga katta e’tibor qaratmoqda. So‘nggi yillarda Xitoyda tovar belgilarini himoya qilish bo‘yicha yirik xalqaro huquqiy tortishuvlar kuzatildi, buning yorqin misoli sifatida “Manolo Blahnik” kompaniyasining uzoq davom etgan sud jarayoni misol bo‘la oladi. Kompaniya 20 yildan ortiq davom etgan huquqiy kurash orqali o‘z tovar belgisini Xitoyda qayta ro‘yxatdan o‘tkazishga va foydalanish huquqini tiklashga erishdi. Ushbu holat brend himoyasida to‘g‘ri huquqiy mexanizmlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston tajribasi xalqaro standartlarga tobora yaqinlashib bormoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha “Tovar belgilar, xizmat ko‘rsatish belgilar va tovar kelib chiqish joy nomlari to‘g‘risida”gi qonunga amal qilmoqda. Ushbu jarayon O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk markazi (IMA) tomonidan boshqariladi. So‘nggi yillarda raqamlashtirish, ochiq axborot tizimlari va xalqaro shartnomalarga qo‘shilish orqali tizim sezilarli takomillashtirildi. Xususan, O‘zbekiston 2006-yildan boshlab Madrid Protokoliga qo‘shilgan va xalqaro ro‘yxatga olish imkoniyatiga ega<sup>4</sup>. Biroq, xalqaro tajriba asosida quyidagi kamchiliklarni bartaraf etish lozim:

- ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonining muddatini qisqartirish;
- raqamli hujjat aylanishini to‘liq joriy etish;
- brendlarni soxta hujjatlar asosida ro‘yxatdan o‘tkazish xavfini kamaytirish uchun avtomatlashtirilgan tekshiruv tizimini kuchaytirish.

Misol uchun, AQSH va Yevropa Ittifoqida arizalar maxsus intellektual mulk ma’lumotlar bazalari bilan avtomatik tarzda solishtiriladi va muqobil belgilar

<sup>4</sup> Madrid kelishuvi va Protokoli. – WIPO, 1989



aniqlangan taqdirda avtomatik ravishda rad etiladi. O‘zbekistonda bu kabi texnologiyalarni keng joriy etish orqali brendlar va tadbirkorlar huquqlarini yanada ishonchli himoya qilish mumkin bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, O‘zbekiston qonunchiligidagi noan’anaviy tovar belgilarini - tovush, rang, hid, harakatli belgilar kabi shakllarni himoya qilish mexanizmi hozircha to‘liq yo‘q. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, aynan noan’anaviy belgilar, masalan, Nokia’ning o‘ziga xos ohangi yoki Coca-Cola ichimlik butilkasining shakli kabi belgilar tijorat nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Shunday himoyani qonunchilik asosida shakllantirish O‘zbekiston tovar belgilari tizimini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin<sup>5</sup>. Xalqaro tajriba O‘zbekiston iqtisodiyoti va brend himoyasi tizimi uchun ishonchli yo‘nalishlar va amaliy yechimlarni taklif qilmoqda. Yaqin yillarda ushbu sohada raqamlashtirish va huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish O‘zbekistondagi tadbirkorlik muhiti va investitsion jozibadorlikni sezilarli darajada oshiradi.

## Xulosa va takliflar

Tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish va himoya qilish sohasida xalqaro tajriba tahlili asosida O‘zbekiston Respublikasida ushbu sohani yanada takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonini raqamlashtirishni yanada chuqurlashtirish zarur. Xalqaro amaliyot, xususan AQSH va Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ariza berishdan boshlab yakuniy guvohnoma olishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarning elektron platforma orqali amalga oshirilishi jarayonning tezkorligi, shaffofligi va ishonchlilagini ta’minlaydi. Shuningdek, ro‘yxatdan o‘tkazish

<sup>5</sup> Islomov M.Sh. Tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning huquqiy himoyasi. – Toshkent : TDYuU nashriyoti, 2019. – 148 b.



jarayonida avtomatik tarzda o‘xhash belgilarni aniqlash va ularning oldini olish imkonini beruvchi dasturiy vositalarni joriy etish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida brendning real foydalanishini majburiy tartibda talab etish mexanizmini qonunchilik asosida joriy qilish lozim. Bu, bir tomondan, “o‘lik” brendlari va spekulyativ ro‘yxatga olish holatlarining oldini olsa, ikkinchi tomondan, ro‘yxatga olingan belgilarning haqiqiy iqtisodiy qiymatga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, belgilangan muddat ichida foydalanilmagan tovar belgilarini ro‘yxatdan chiqarish mexanizmini yanada soddalashtirish va samarali qo‘llash zarur.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi tovar belgilarini xalqaro miqyosda himoya qilish bo‘yicha axborot tizimlariga integratsiyani kengaytirishi lozim. Xususan, Madrid shartnomasi doirasida xalqaro ro‘yxatga olish tizimidan to‘liq foydalanish, shuningdek, EUIPO, USPTO va WIPO ma’lumotlar bazalari bilan elektron axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish, bu sohada huquqiy va texnik ishonchlilikni oshiradi.

To‘rtinchidan, tovar belgilarini himoya qilish bilan bog‘liq sud-huquq amaliyotini takomillashtirish zarur. Xususan, tovar belgilariga oid huquqbuzarliklarni soddalashtirilgan tartibda va imkon qadar tezkor ko‘rib chiqish tizimini yaratish, shuningdek, brend egalari manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro standartlarga mos sud amaliyotini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilar, xizmat ko‘rsatish belgilar va tovar kelib chiqish joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent : Adolat, 2020. – 36 b.
2. Madrid kelishuvi va Protokoli. – WIPO, 1989.



3. Parij konvensiyasi sanoat mulkini himoya qilish to‘g‘risida. – Geneva : WIPO, 2020.
4. Singapur shartnomasi. – Geneva : WIPO, 2006.
5. Islomov M.Sh. Tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning huquqiy himoyasi. – Toshkent : TDYuU nashriyoti, 2019. – 148 b.
6. Mahmudov N.O., Nasirillayeva N.O., Rasulov Sh.K. O‘zbekistonda tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish: asosiy 10 savolga 10 javob. – TADQIQOTLAR, 2024.